

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA STANDARTLASHTIRISH
SOHASIDAGI ISLOHOTLAR.**

Farg'ona Politexnika instituti. MS va MSM kafedrası assistenti

Isroilova Saodatxon Xabibullo qizi

Farg'ona Politexnika instituti Kompyuterlashgan loyihalash tizimlari

fakulteti 50-22 MS va MSM guruh talabasi

Kamolova Madinaxon Rasuljon qizi

Annotatsiya: *Maqolada O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga bo'lgan talab, hamda standartlashtirish sohasidagi o'zgarishlar va olib borilayotgan islohotlar haqida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Standartlashtirish, standart, sifat, islohot, rivojlanish.*

Ichayotgan suvimizdan tortib, egnimizdagi libosimizgacha, yashab turgan xonadonimiz va boshqarayotgan avtomobilimizgacha — barchasining talab va o'lchovlari bor. Bu talablar texnik jihatdan tartibga solinib, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya masalalari alohida tizim sifatida rivojlandi. Bugungi kunga kelib, sohani takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanilmoqda.

Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilotlar ISO va MEQ ta'rifiga muvofiq, O'zbekiston davlat standarti (O'z DSt ISO/ IEC 2:207) sifatida qabul qilingan standartlashtirish "...muayyan sohada tartibga solishning maqbul darajasiga erishishga qaratilgan faoliyat"dir. Shu ma'noda, standartlashtirish tizimining o'zi ham, shuningdek, konstruktorlik hujjatlari, mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish, muvofiqlikni baholash, texnik-iqtisodiy va ijtimoiy axborotlarni tasniflash va kodlash, o'lchovlar yagonaligini ta'minlash, putur yetkazmaydigan nazorat, mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo'yish, akkreditatsiyadan

o'tkazish, texnik jihatdan tartibga solish, mahsulotni sinash, sifat, xizmatlar, atrof-muhit muhofazasi, favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik, texnikaning puxtaligi kabi standartlashtirishga tayanadigan boshqa tizimlar ham "muayyan soha"lar bo'lib xizmat qiladi.

Standartlar negizida shakllantirilgan va ishlayotgan mazkur tizimlarni umumiy "tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari" nomi birlashtiradi. O'zbekistonda shakllantirilgan tizimlarga "O'z" abbreviaturasi qo'shiladi. Masalan, O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimi (O'zSDT), O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish davlat tizimi (O'zTTDT), O'zbekiston sifat tizimi (O'zST) kabi. O'z navbatida, O'zbekiston tarmoqlararo standartlashtirish tizimlari O'zTST shaklida belgilanadi.

Har bir sohani rivojlantirishda unga xos atamalarga murojaat qilish, ulardan o'rinli foydalanish talab etiladi. Shunday ekan, texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya milliy tizimida soha atamalaridan foydalanish, davlat tilida ish yuritish qay holatda, degan savol tug'iladi.

Davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va ularning hududiy filiallarida davlat tilida ish yuritishni, ish yuritishda barcha hujjatlarning davlat tilida bo'lishini ta'minlash bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatilgan. Tizimli ravishda olib borilayotgan ishlar natijasida ijobiy ko'rsatkichlarga erishib kelinmoqda.

Agentlik ish yurituvdagi hujjatlar, muvofiqlik sertifikatlari sinov bayonnomalarining davlat tilida rasmiylashtirilishi ta'minlanmoqda. Tizimdagi UzTest markazi tomonidan 26 ming 454 ta muvofiqlik sertifikati, sinov laboratoriyalari tomonidan 45 ming 193 ta sinov bayonnomasi hamda ish yuritishdagi barcha hujjatlarning davlat tilida rasmiylashtirilishiga erishildi.

O'zbekiston Milliy metrologiya instituti tomonidan 339 ming 335 dona o'lchash vositasining davriy qiyoslash sertifikatlari, tadbirkorlar tomonidan import qilingan 18 ming 550 dona o'lchash vositasining birlamchi attestatsiya sertifikatlari hamda ish yuritishdagi barcha hujjatlar to'liq davlat tilida rasmiylashtirilgan. "Akkreditatsiya markazi" DUK tomonidan muvofiqlikni baholash organlariga ko'rsatilgan xizmatlar natijasida 598 ta akkreditatsiya guvohnomasi to'liq davlat tilida rasmiylashtirildi. Standartlar instituti tomonidan qabul qilingan xalqaro standartlarning 2 ming 720 tasi davlat tiliga o'girilgan, 66 ta davlat standarti qabul qilingan.

Agentlik tizimi, uning barcha hududlardagi filiallarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tashkil etilishiga e'tibor kuchaytirildi. Barcha tashqi yozuvlar, jumladan, lavha, e'lon, reklama va ko'rgazmali axborot matnlari, tashqi reklama vositalarining "Davlat tili haqida"gi va "Reklama to'g'risida"gi qonun hujjatlariga muvofiqligi ta'minlandi.

Bugungi globallashtirish sharoitida yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun malakali mutaxassislar zarur. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat menejmenti sohalari bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash mahsulot ishlab chiqarishda sifatni boshqarishning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Bu yo'nalish bo'yicha sohaga oid atamalar lug'ati yo'qligi o'quv jarayonida muayyan qiyinchiliklarni paydo qilish bilan birga, milliy texnik kadrlar tayyorlash sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuni e'tiborga olib, "Ruscha-o'zbekcha izohli lug'at" nashr etildi.

Lug'at metrologiya sohasiga doir jahon lug'atchiligi manbalaridan foydalangan holda amaldagi davlat standartlari asosida ishlab chiqilgan. Unga metrologiya, o'lchash texnikasi va sifatni boshqarish sohasidagi davlatlararo standartlar, shuningdek, xalqaro standartlarga oid asosiy atamalar kiritilgan.

Lug'atda darsliklar, ilmiy risolalar, ensiklopediyalar, turli lug'atlarda har xil shaklda qo'llanayotgan milliy atamalarni birxillashtirishga alohida e'tibor berilgan holda, eng ko'p, muvaffaqiyatli ishlatilayotgan standart shakllari tanlab olingan.

Lugʻat bilan tanishar ekansiz, unda jahon metrologik lugʻatlarida qoʻllangan anʻanalarga rioya qilinib, atamalarning alifbo uyali tizimi qabul qilingani, unda bir soʻzdan iborat atamalar ham, uyalarning yetakchi soʻzlari ham umumiy alifbo tartibida joylashtirilganini koʻrish mumkin.

Lugʻatda izohlar lotin yozuvida ham berilgan. Bu hol kirill yozuviga odatlanib qolgan mutaxassislar uchun ham, lotin yozuvini oʻzlashtirgan yosh mutaxassislar uchun ham foydalanishda qulaylik tugʻdiradi. Atamalar izohi lugʻatning eksperimental holatidan kelib chiqqan holda ham oʻzbek, ham rus tilida berilgan. Bu rus tilidagi metrologik soʻz va birikmalarning oʻzbek tilida qanday ifodalanishini toʻliq namoyon qiladi. Oʻz navbatida, metrologiyani rus tilida oʻzlashtirgan mutaxassis, olim va tadqiqotchilarga ularning oʻzbek tilida metrologik fikrlash doirasini boyitish uchun xizmat qiladi.

Shuningdek, bugungi kunda sohada keng qoʻllanayotgan “Standartlashtirish sohasida xalqaro atamalar bilan uygʻunlashtirilgan davlat tilidagi atama va tushunchalarning izohli lugʻati”ga Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida ISO/MEK xalqaro standartlari va Jahon savdo tashkilotining hujjatlari hamda OʻzTST atamashunoslik standartlarida oʻz aksini topgan asosiy atama, tushuncha va taʼriflar kiritilgan. Lugʻatda atama, tushuncha va taʼriflarning barcha varianti keltirilgan. Ular oʻzbek tilida lotin va kirill alifbolarida hamda rus tilida berilgan.

Lugʻatda rus tilidagi sohaga oid atama va tushunchalar oʻzbek tilida izohlangan, muqobil varianti kirill va lotin alifbosida berilgan. Lekin lugʻat hajman kichik boʻlgani bois, standartlashtirish sohasiga oid barcha atamalarni qamrab olmagan. Ayni paytda milliy standartlashtirishning katta lugʻatini tuzish va bu ishga tilshunos-lugʻatshunoslarni jalb qilish, lugʻatning yangi tahriri ustida ish olib borilyapti. Ushbu izohli lugʻatga Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida, Xalqaro standartlashtirish tashkiloti va Xalqaro elektrotexnika komissiyasi xalqaro standartlari va Jahon savdo tashkilotining hujjatlarida oʻz aksini topgan asosiy atama, tushuncha va taʼriflarni kiritish nazarda tutilmoqda. Bugungi

kunda sohaga oid atamalarni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish va iste'molga kiritish, "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi so'zlar qatoriga qo'shish ustida ham izlanish olib borilmoqda.

Standartlashtirish sohasini yanada takomillashtirish maqsadida ko'pkina qonunlar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Standartlashtirish to'g'risida"gi qonunga ham o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib yangi tahriri joriy qilindi.

Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2022-yil 15-iyulda qabul qilingan. Senat tomonidan 2022-yil 7-oktabrda ma'qullangan.

Xulosa.

Xulosa qilganda, O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish va xalqaro bozorlarga chiqish, xalqaro aloqalarni mustahkamlash, inson hayotini tartibga solish, mahsulot sifatini oshirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirish, ko'proq malakali kadrlarni yetkazib chiqarish, xalqaro standartlarga moslashgan milliy standartlarni ishlab chiqish va yana bir nechta maslalani ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Standartlashtirish tashkiloti sayti-
<https://www.standart.uz/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlar sayti-
<https://www.lex.uz/ru/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi strategik va mintaqalararo taqiqotlar instituti sayti- <https://isrs.uz/oz/>